

# PEDAGOGIK MAHORAT

9  
—  
2023



ISSN 2181-6883

# PEDAGOGIK MAHORAT

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**9-son (2023-yil, oktabr)**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2023**

<https://buxdu.uz>

20.	<b>МУСАЕВА Нодира Низомовна, МУСАЕВА Нафиса Азимжоновна, ЛИТВИНА Виктория Богдановна</b>	Технология модульного обучения, основанная на предметно-деятельностном подходе	118
21.	<b>ОМОНОВ Азиз Носир ўғли</b>	Ички ишлар органи ходимларида ижтимоий интеллектнинг илмий-психологик асослари	124
22.	<b>РАХИМОВА Индира Игоревна</b>	Влияние ценностей на социальную активность	129
23.	<b>САЙДВАЛИЕВА Шодия Риҳсихужса кизи</b>	Концептуально-системообразующие подходы в исследовании этнического самосознания	133
24.	<b>ТАИРОВА Мадинабону Бахтияровна</b>	Бўлажак тарбиячиларда касбий фаолиятларини ривожлантириш муаммосининг назарий манбаларда ёритилиши	138
25.	<b>УРИНОВА Шарофат Ахтамовна</b>	Талабалар клиник тафаккурини шакллантиришда вазиятли топшириқлардан фойдаланиш	143
26.	<b>ҲАҚИМОВ Жамишид Оқтимович</b>	“Информатика ва АКТ” курсини ўқитишида инновацион шакллар ва таълим тизимини қуриш тамоиллари	147
27.	<b>SATTAROVA Gulnora Ikromovna</b>	Jismoniy rivojlanshida nuqsoni bo‘lgan o’smirlar hissiy va irodaviy sifatlarining korrelyatsiasi	151
28.	<b>HIKMATOV Akmal Sadulloyevich</b>	Nevrolog-shifokorlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligi rivojlantirishning o’ziga xos jihatlari	158

### МАКТАБГАЧА VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM

29.	<b>ADIZOVA Nigora Baxtiyorovna</b>	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining divergent tafakkurini rivojlantirishda ta’lim-tarbiyaning ahamiyati	163
30.	<b>ADIZOVA Nodira Baxtiyorovna</b>	Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarni kamol toptirishda muammoli ta’lim texnologiyasining o‘rni	168
31.	<b>AXMEDOVA Zarrina Jamilovna</b>	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni moslashuvining pedagogik-psixologik xususiyatlari	173
32.	<b>JUMAYEV Umedjon To‘raqulovich</b>	Art-terapiya vositasida maktabgacha yoshdagি bolalarning kreativ tafakkurini rivojlantirishning nazariy asoslari	179
33.	<b>QAYIMOV Laziz Mirzo o‘g‘li</b>	Boshlang‘ich sinflarda ertaklarni o‘qitish asosida o‘qib va tinglab tushunish malakalarini takomillashtirish	184
34.	<b>SANOYEV G‘aybullo Abduraxmonovich</b>	Boshlang‘ich sinflarda ajdodlar merosidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	190

### FILOLOGIYA VA TILLARNI O‘QITISH

35.	<b>ALMAMATOVA Manzura Shavkatovna</b>	Pedagogical basis of motivation and attitude in learning a foreign language	195
36.	<b>BAKAYEVA Rayxon Izatovna</b>	O‘qish savodxonligi funksional savodxonlikni shakllantirishning asosi sifatida	199
37.	<b>DILOVA Nargiza Gaybullayevna, BAKAYEVA Rayxon Izatovna</b>	Funksional o‘qish savodxonligini rivojlantirishda matn turlari ustida ishslash usullari	204
38.	<b>SHAROPOV Sherzod Shirinboy o‘g‘li</b>	Kooperatsiya asosida til o‘rganish xususiyatlari	213
39.	<b>РАХИМОВА Мухаббат Эргашевна</b>	О приёме сопоставления текстов на уроке литературы	217

### ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISH

40.	<b>QAHHOROV Siddik Qahhorovich, JAMILOV Yusuf Yunus ugli</b>	Results of research on the use of software to improve the quality of education	223
41.	<b>RAKHIMOV Nasriddin Nomozovich, BEGMATOV Akram Khasanovich, HAQNAZAROVA</b>	Methods of teaching trigonometric equations and inequalities using the properties of geometric shapes	230

**BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O’QUVCHILARNI KAMOL TOPTIRISHDA MUAMMOLI  
TA’LIM TEKNOLOGIYASINING O’RNI**

*Adizova Nodira Baxtiyorovna,  
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti*

*Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda dars o’tish jarayonida muammoli ta’limning maqsad va vazifalari yoritilgan. Muammoli ta’lim muammoni hal etish jarayonini butun sinf jamoasining faol aqliy ishiga aylantiradi. Bu sinfdagi har bir bola shaxsining individual xususiyatlarini maksimal darajada inobatga olmishini taqozo etadi. Faqat shundagina sinfdagi jamoaning barcha a’zosi butun o’quv jarayoni davomida tom ma’nodagi ijod kishisiga, fikr odamiga aylana boradi. Muammoli ta’limni qanday nomlashdan qat’iy nazar, uning asosiy xususiyati – bilim oluvchining aqliy faolligini oshirish, mustaqil ijodiy izlanish, o’zi uchun yangi bilim, ko’nikma va malakalarini kashf etishdan iborat. Zamonaliv pedagogik texnologiyalar asosida ta’lim jarayoni tashkil etilgandan bilim egallashning bir qancha bir-biriga bog’liq bo’lgan bosqichlari mavjud bo’lib, tayyor bilimlarni o’quvchi-talabalar ongiga yetkazish, xotiralash, xotirada saqlash, qayta xotiralash, so’zlab berish, yozma ifodalash kabi holatlar bilish, tushunish darajasini ifodalaydi.*

**Kalit so’zlar:** muammoli ta’lim, mantiqiy usullar, ijodiy faoliyat, maxsus yo’llar, bilimlarni ijodiy o’zlashtirish, hayotiy vaziyatga ko’ra mavjud bilimlardan ijodiy foydalanish ko’nikmasini tarbiyalash, ijodiy faoliyat.

**РОЛЬ ПРОБЛЕМНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ  
ОБУЧАЮЩИХСЯ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ**

В данной статье описаны цели и задачи проблемного обучения в ходе занятий в начальных классах. Проблемное обучение превращает процесс решения задач в активную интеллектуальную деятельность всего класса. Это требует максимального учёта индивидуальных особенностей каждого ребёнка в классе. Только так каждый член коллектива класса станет человеком творчества и человеком идеи на протяжении всего учебного процесса. Независимо от того, как называть проблемное образование, его основной особенностью является повышение умственной активности обучающегося, самостоятельного творческого поиска, открытия новых знаний, умений и навыков. С момента создания образовательного процесса на основе современных педагогических технологий выделяют несколько взаимосвязанных этапов приобретения знаний. Такие ситуации, как передача, письменное изложение, представляют собой уровень знаний и понимания.

**Ключевые слова:** проблемное обучение, логические методы, творческая деятельность, специальные способы, творческое усвоение знаний, воспитание умения творческого использования имеющихся знаний согласно жизненной ситуации, творческая деятельность.

**THE ROLE OF PROBLEMED EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN DEVELOPMENT OF STUDENTS IN PRIMARY EDUCATION**

*This article describes the goals and tasks of problem-based education in the course of classes in primary grades. Problem-based learning turns the problem-solving process into an active intellectual activity of the whole class. This requires maximum consideration of the individual characteristics of each child in the class. Only in this way, every member of the team in the class will become a person of creativity and a person of ideas during the entire educational process. Regardless of how to name the problem-based education, its main feature is to increase the mental activity of the learner, independent creative search, discovery of new knowledge, skills and abilities. Since the establishment of the educational process on the basis of modern pedagogical technologies, there are several interrelated stages of acquiring knowledge. situations such as giving, written expression represent the level of knowledge and understanding.*

**Key words:** problem-based education, logical methods, creative activity, special ways, creative assimilation of knowledge, education of the skill of creative use of existing knowledge according to the life situation, creative activity.

**Kirish.** Ma’lumki. har qanday inson o’z oldida ko’ndalang turgan hayotiy yoki ilmiy muammoni hal etish uchun o’ylanadi. izlanadi. bilganlarini taftish qiladi, zo’riqadi. mashaqqat chekadi. Bu ruhan sog’lom

odamga xos bo‘lgan tabiiy xususiyat. Ta’lim jarayonida shunday vaziyatga solingen o‘quvchi ham ta’limiy muammoni hal qilish orqali bilim olish yo‘lida shunday hislarni kechiradi. Milliy pedagogikada ta’lim - tarbiya jarayoniga bugun butunlay yangicha talablar asosida yondashilmoqda. Zamonaviy tilshunoslikda ta’lim -tarbiyaning oldiga o‘quvchini zarur bilimlar yig‘indisi bilan ta’minalash doirasidan chiqib, o‘quvchi noan’aviyatini shakllantirish. unda bilishga ichki ehtiyoj paydo qilish, mustaqil, mantiqiy, ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish kabi sifat jihatidan yangi talablar qo‘yilyapti.

**Asosiy qism.** Muammoli ta’lim texnologiyasining asosiy maqsadi bilim oluvchilarining mustaqilligi va faolligini oshirish, tafakkurini rivojlantirish, o‘zlashtirilgan bilimlarning amaliyotga tatbiq etilishini kuchaytirishdan iborat. Pedagogik-psixologik adabiyotlarda muammoli ta’limning ilmiy-na-zariy asoslari haqida gap borganda, uni ta’lim metodi, prinsipi yoki alohida tizim deb hisoblash holatlari uchraydi. Muammoli ta’limni qanday nomlashdan qat’iy nazar, uning asosiy xususiyati – bilim oluvchining aqliy faolligini oshirish, mustaqil ijodiy izlanish, o‘zi uchun yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni kashf etishdan iborat. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ta’lim jarayoni tashkil etilgandan bilim egallashning bir qancha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan bosqichlari mayjud bo‘lib, tayyor bilimlarni o‘quvchi-talabalar ongiga yetkazish, xotiralash, xotirada saqlash, qayta xotiralash, so‘zlab berish, yozma ifodalash kabi holatlar bilish, tushunish darajasini ifodalaydi. Bu darajalarda bilim oluvchidan ijodiy yondashuv talab etilmaydi. O‘zlashtirishning keyingi darajalarida olgan bilimlarini amalda tatbiq etishi, ma’lum natijalarini qo‘lga kiritishi, to‘ldirishi, boyitishi, o‘zgartirishi, o‘zining mustaqil nuqtayi nazariga ega bo‘lishi talab etiladi. Bu o‘zlashtirish darajalari uchun muammoli yondashuv zarur [3]. O‘quv jarayonini muammoli tarzda tashkil etish auditoriyaga o‘ziga xos psixologik jihatdan yondashuvni talab etadi. Buning uchun o‘qituvchi va tahsil oluvchilar o‘rtasida hech qanday psixologik to‘sinq bo‘lmasligi, iliq psixologik muhit yaratilishi lozim. So‘ngra bugungi mashg‘ulotni samarali o‘tkazish qoidasi qabul qilinadi. Ushbu jarayon auditoriyadagi barcha tahsil oluvchilar bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Muammoli ta’lim hamisha ham yuqori darajada samara beraveradigan hodisa emas. O‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilimlar. ayrim hollarda kamroq kuch va vaqt sarflangan holda. an’naviy metodlar orqali ham maksimal darajada hal etilishi mumkin. Bunda hamma narsani o‘zlashtiriladigan materialning tabiati. o‘qituvchining bilimdonligi va mahorati hal qiladi.

O‘qituvchi bugungi mashg‘ulotning samaradorligini ta’minalash uchun o‘quvchi-talabalar qanday qoidalarga amal qilishi lozimligini auditoriyadan so‘raydi. Mashg‘ulotning samaradorligini ta’minalash uchun quyidagi qoidalarga amal qilinishi tavsiya etiladi: gapni bo‘lmaslik; bir-birini eshita bilish; bir-birini tinglay olish ko‘nikmasi; navbat bilan gapirish ko‘nikmasi: qo‘l ko‘tarish qoidasiga amal qilish; sabr-toqatli bo‘lish, o‘zaro hurmat. Darsni muammoli tarzda tashkil etish uchun birinchi galda o‘quvchi-talaba bahs-munozara yuritishga, fikrlarini erkin bayon etishga, tanqidiy munosabat bildirishga tayyor bo‘lishi lozim. Buning uchun qo‘yiladigan muammolarga bog‘liq bo‘lgan tushunchalar yuzaga chiqariladi. So‘ngra muammoga aniqlik kiritilib, ma’lum xulosalar chiqariladi. Bu jarayon fikrmulohazalarda ifodalananadi [1]. Muammoni hal etish bosqichida o‘quvchitalabalarning faol ishtirokini ta’minalash maqsadida bu jarayonni shartli ravishda quyidagi uch bosqichga ajratish mumkin:

- aniqlash bosqichi;
- anglash bosqichi;
- fikrlash bosqichi.

Birinchi, aniqlash bosqichida o‘quvchi-talabalarda mayjud bo‘lgan tushunchalar aniqlab olinadi va ularning diqqati muammoga jalb qilinadi. Aniqlash bosqichini tashkil etish uchun quyidagi savollardan unumli foydalanish mumkin:

Bu haqda qanday ma’lumotlarga egasiz?

Bu xususda nimani bilishni xohlaysiz?

Nima uchun bu muhim?

Ikkinci, anglash bosqichida asosiy maqsad o‘qish jarayonining dinamikasini ta’minalash, yangi o‘quv ma’lumotlarini o‘zlashtirishdan iborat. Bunda qo‘ylgan muammoni mohiyatini anglab yetish va hal etish nazarda tutiladi. Ushbu bosqichda ta’limning turli faol usullaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

Muammoning qo‘yilishi va uni yechish jarayoni uzilmas bir zanjirdir. Muammo ko‘tarilishi bilanoq uning yechimi ustida o‘ylanadi, va bu o‘z navbatida, yangi muatnmolarni keltirib chiqaradi. Shu tariqa, uzlusiz tarzda yangi bilimlarni o‘zlashtirish amalga oshadi. Ta’lim amaliyotida o‘qituvchining sinfga olib kiradigan ma’lumotlari o‘quvchilar tayyor bilim sifatida qabul qiladigan yoki o‘zları mehnat qilib o‘zlashtiradigan shaklda bo‘ladi. Ta’limning dastlabki bosqichlarida, ya“ni boshlang‘ich sinflarda birinchisi ko‘proq qo‘llanilishi tabiiy. Lekin o‘qitish kechimida bilimlarni mehnat qilib o‘zlashtirish shakli ham o‘rnii bilan qo‘llanilishi va uni tashkil etishda quyidagi me’yorlarga amal qilinishi masadga muvofiqdir:

- a) o‘quvchilar mustaqil ravishda o‘zlashtirishlari lozim bo‘lgan bilimlar ularning imkoniyatlariga mos murakkablikda boiishi;
- b) berilajak materialning yechimi dasturda belgilangan vaqt oralig‘ida amalga oshirilishi;
- v) ijodiy yo‘l bilan o‘zlashtirilgan bilimlar muslahkamligi darajasi reproduktiv yo‘l bilan olinadigan bilimlardan baland bo‘lishi.

Muammoli ta’lim muammoni hal etish jarayonini butun sinf jamoasining faol aqliy ishiga aylantiradi. Bu sinfdagi har bir bola shaxsining individual xususiyatlarini maksimal darajada inobatga olmishini taqozo etadi. Faqat shundagina sinfdagi jamoaning barcha a’zosi butun o‘quv jarayoni davomida tom ma’nodagi ijod kishisiga, fikr odamiga aylana boradi.

Ta’lim jarayonini muammoli tashkil etish o‘qitishni tarbiyaviy, ta’limiy, qiziqtiruvchi, rivojlantiruvchi imkoniyatlar bilan ta’minlaydi. Muammoli ta’lmning uchta maxsus vazifasi mavjud:

1. Mantiqiy usullar yoki ijodiy faoliyatning maxsus yollaridan foydalanib o‘quvchilarda bilimlarni ijodiy o‘zlashtirish ko‘nikmasini shakllantirish.

2. Hayotiy vaziyatga ko‘ra mavjud bilimlardan ijodiy foydalanish ko‘nikmasini tarbiyalash.

3. Ijodiy faoliyat ko‘rsatish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Bundan tashqari, muammoli ta’limning quyidagi vazifalari ham mavjudki, bu jarayonni tashkil etishda ulami ham nazardan qochirmslik maqsadga muvofiqidir:

1. O‘quvchilaming bilim olish faoliyatini mustaqil va ijodiy yo‘nalishga chiqarish.

2. O‘quvchining yangi bilim va faoliyat usullarini o‘zlashtirishini ta’minalash.

3. Ta’limning ilmiyligi darajasini oshirish.

4. O‘quvchida ilmiy dunyoqarash shakllanishini ta’minalash.

5. Shakllanib kelayotgan shaxsda hissiy-irodaviy sifatlarni rivojlantirish, uning ko‘nglidagi odam va olam sirlarini bilishga bo‘lgan ichki ehtiyojini qondirish.

Yuqoridagi vazifalaming har biri alohida o‘quvchining amaliy va nazariy-intellektual faoliyatida namoyon bo‘ladi hamda ular muammoli ta’lmning quyidagi xususiyatlari bilan bog‘liq:

1)o‘quvchining yangi tushunchalarni muammo yo‘li bilan mustaqil o‘zlashtirishdagi xususiy faoliyati bolib, u bilimlarning ongli, chuqur va mustahkam o‘zlashtirilishini ta’minlaydi;

2)muuanunoli ta’lim shaxs dunyoqaiashi shakllanishida eng samarali usullardan biri sanaladi. Chunki muammoli ta’lim jarayonida to‘plangan bilimlar mustaqil, tanqidiy, ijodiy tafakkur ko‘magida amaliy faoliyatda aylanib, qat’iy ishonchga aylanadi;

3)o‘quv va amaliy muammolar oilasidagi qonuniy aloqadorlik yuzaga keladi. Hayot bilan aloqadorlik o‘zlashtirilgan bilimlarni har xil amaliy faoliyatda qoilanilishiga xizmat qiladi;

4)o‘quvchilarning har xil mustaqil ishlarini tizimli ravishda va samarali qo‘llash imkoniyati yaratiladi;

5)muammoli ta’limning individualligi o‘quv fanini o‘zlashtirish uchun o‘quvchida bilim, ko‘nikma va malakalarning ma’lum darajasi oldindan mavjud bolishini taqozo etadi. Muammoning har xil shaklda bolishi farazlar xilma-xilligini tizimga soladi va natijjalarga har xil yo‘llar bilan erishilishini ta’minlaydi;

6)muammoli ta’limning navbatdagi xususiyati uning jo‘shqinligidir. Bu jo‘shqinlik muammo har bir bolaga o‘ziga xos tarzda ta’sir ko‘rsatishidan kelib chiqadi;

7)muammoli ta’lim o‘quvchilarning yuqori darajadagi faolligiga asoslanadi. Chunki muammoli vaziyatning o‘zi aqliy zo‘riqishning asosiy manbai hisoblanadi. O‘quvchining fikrlashi uzlucksiz tarzda. uning ruhiy-hissiy faoliyati bilan tabiiy aloqada bo‘ladi. Tadqiqot shaklida bolgan har qanday fikrlash o‘quv muammosining individual qabul qilinishini, shaxsiy tuyg‘ularni, emotSIONAL faollikni oshiradi;

8)muammoli ta’lim bilimlarni sermahsul va ijodiy o‘zlashtirishni ta’minlaydi, o‘quvchi ijodiy faoliyatini kuchaytiradi. Tarbiyalanuvchida o‘ziga ishonch hissini orttiradi.

Ko‘pincha ilmiy adabiyotlarda muammo bilan murakkab savollar aralashtirib yuboriladi. Bir qator olimlar muammoni har qanday savoldan ajratib turadigan belgi hal etilishi kerak bo‘lgan masalaning muhimligi yoki qiyinligida, deb biladilar. Ammo muhimlik ham qiyinlik ham muammoning asosiy xususiyati emas. Chunki o‘ta muhim va murakkab savollar ham muammo darajasiga ko‘tarila olmasligi mumkin. "Savol so‘zining xususiyatlari va ahamiyati lug‘atlarda: «javob talab qiladigan murojaat; o‘rganiladigan muhokama qilinadigan predmet, yechimini talab qiladigan masala»1}deb ko‘rsatilgan. Savolda ifodalangan bilmaslik ilmiy izlanish natijasida ma lumga, o‘rganilgan narsaga aylansa bunday savol muammo bo‘lolmaydi. Savolda. odatda, javob uchun zarur bo‘lgan deyarli barcha ma’lumotlar mavjud boiadi. Savol uni so‘rayotgan odam javobini biladigan, soddarroq fikrlashni talab qiladigan, butun vaziyatning yetishmayotgan qismlarini to‘ldirishdan iborat bo‘lgan hodisa. Buni o‘quvchi savolni tushunib, unga javob berish uchun kerak bo‘ladigan faktlar orasida shunday aloqa o‘rnatadi, deb tushunish mumkin. Ba’zan savolga javob berish uchun qandaydir bir faktning eslashning o‘zi kifoya. O‘quvchi yo‘naltirilgan fikrlash usullari, odatda, avvallari foydalanilgan bo‘ladi va u shu andaza bo‘yicha harakat qiladi.

Agar savol yangi qonuniyatlarni kashf etish imkoniyatlari haqidagi taxminlar bilan uyg‘unlashtirilsa, muammoga aylanishi mumkin. Muammo bir necha yechimga egaligi bilan savoldan farqlanadi. Yechimlarning har biri salmoqli asosga ega bo‘ladi. Ko‘p muammolarni qisqalik maqsadidan kelib chiqib, savol yoki topshiriq tariqasida qo‘yish ham mumkin.

Polyak pedagogi V. Okon muammoli ta’limga xos vaziyatni muammoni biror masala yuzasidan tashkil qilish, uni shakkantirish bilan birga hal etish jarayonida o‘quvchilarga berish, bu jarayonning izchilligini ta’minalash va boshqarish, olingen natijalarni tekshirish hamda bilimlarni mustahkamlash kabi faoliyatlar yig‘indisi sifatida baholaydi. I. A. Ilantskaya mazkur ta’limni o‘quvchining maktab ta’lim -tarbiya maqsadlariga mos muammolarni o‘qituvchi rahbarligida o‘zi uchun yangi bo‘lgan ilmiy-amaliy bir tizimda hal etishda ishtirok qilishidan iborat faoliyati, deb qaraydi. V. T. Kudryavsev muammoli ta’limning mohiyatini o‘quvchining oldiga didaktik muammo qo‘yish. o‘quvchilar ularni yechish asnosida bilimlarini umumlashtirishi va muammoli masalalarni hal qilish tamoyillarini o‘zlashtirishida, deb hisoblaydi. A. M. Matyushkining fikricha, esa muammoli ta’lim - o‘qitishning bilimlarni qiziqarli yo‘llar bilan berishga tayanadigan turidir.

Muammoli ta’lim masalasi bilan maxsus shug‘ullangan rus pedagogi M. Maxmutovning fikricha, muammoli ta’lim bilimlarni ijodiy o‘zlashtirish va faoliyatning maxsus qonuniyatlariga asoslangan, ilmiy izlanishning asosiy jihatlarini o‘zida jamlagan. qitish hamda o‘qish metodlari, usullarini uyg‘unlikda qamrab olgan didaktik tizimni o‘zida aks ettiradi. U bilimlar asosini chuqur o‘zlashtirishni ta’minalaydi, o‘quvchining bilim olishdagi mustaqilligini, ijodiy qobiliyatini oshiradi, dunyoqarashini shakkantiradi, kengaytiradi

Muammoli ta’limdagi keyingi masala bevosita muammoning yechilishidan iboratdir. Bu jarayonni quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

1. Muammoning tahlili va asoslovini ilgari surish. Muammo ma’lum qiyinchiliklar bor joyda paydo bo‘ladi va uning yechimi uchun o‘quvchida mayjud bo‘lgan bilimlarning o‘zi yetarli bo‘lmay qoladi.

2. Masalaning yechimini qidirish va uni hal etish. Muammoni tekshirishda uning yangi aloqalari va ilgari m’alum bo‘limgan sifatlari aniqlanadi. Shu tariqa asta-sekinlik bilan obyektga doir yangi bilim to‘planadi. Har safar uning yangi jihatlari va xususiyatlari ochila boradi. Bu bosqichni masalani hal etish yuzasidan farazlamning shakkantish bosqichi deb atash mumkin. Unda urinishlar va xatolar, avvalgi tajribalarga tayanish, yechimning taxminiyo yo‘llarini belgilash, yechish tamoyillarining isboti va fikrlami asoslash ishlari amalga oshiriladi.

3. Yechish yoilarining to‘g‘riligini tekshirish va olingen natijani baholash. Har bir bosqich ma’lum umumiyl jihatlar, o‘quvchining muammoni yechish yo‘llarini qidirishi va topishidan iborat faoliyati bilan xarakterlanadi. O‘quvchi xato qilishdan cho‘chimay, o‘z izlanishlari asosida masalani hal etishning, rejasini tuzadi. Bu jarayonda muqobil yo‘llari ham ko‘zda tutadi. Masalani anglash bilan uning yechimigacha bo‘lgan yo‘l qiyin va uzoq bolishi ham mumkin. Masalaning hal etilishida o‘quvchi uchun eng muhim jihat uning yechimi haqida o‘z tasavvuriga ega bolishdir. Bu tasavvurga asta-sekinlik bilan samarasiz urinishlardan keyin, kutilmaganda erishish ham mumkin.

**Xulosa.** O‘quvchi-talaba mulohaza qilish uchun sharoit yaratadi;

- o‘quvchi-talabalarni o‘quv jarayonidagi faolligini ta’minalash;
- har bir shaxsnинг o‘z fikr-mulohazasi mavjudligiga o‘quvchi-talabalarni ishontirish;
- ijodiy mustaqil fikrni qadrlashga o‘rgatish.

Bunda o‘quvchi-talabalar, albatta:

- o‘z-o‘ziga va o‘qituvchiga ishonishi;
- faol o‘quv-bilish faoliyatida ishtirok etishi;
- turli fikr-mulohazalarni diqqat va hurmat bilan eshitishi;
- yangi fikr-mulohazani bildirishga va o‘zlashtirishga ruhan tayyor turishlari zarur.

### **Adabiyotlar:**

1. Azizzxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T:TDPU. 2003- yil. 174 6. 92-bet.
2. Azizzxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat (O‘quv qo‘llanma). – T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006-y. – 160 b. 66-bet.
3. Yo‘ldoshev J.G., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. – T.: “Iqtisod-moliya” ashriyoti, 2009-y. – 492 b. 41-42 betlar. 48-49 betlar
- 4.Quronov M. Milliy tarbiya yoriqnomasi. G‘arb va Sharq tarbiyaviy tajribalari namunalari tahlili. //Xalq ta’limi. 1993. -№ 8. - 6-10-b.

## **“PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2023, № 9**

---

- 5.G‘ulomov A. Ona tili darslarida o‘quvchilaming o‘quv-biluv faoliyatini aktivlashtirish. - T .: “O‘qituvchi”. 1987.
6. Gaffrova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. O‘qish kitobi (I-sinfuchun darslik). - T.: “Sharq”, 2017. - 127 b.
7. Nurillayeva Sh., Mirzahakimova Z. O‘qish kitobi (2-sinf uchun darslik). -T .: Sharq, 2018. - 176 b.
8. Umarova M., Hamraqulova X., Tojiboyeva R. O‘qish kitobi (3- sinf uchun darslik). —T.: “O‘qituvchi”. 2016. -2 1 7 b.
9. Matjonov S., Shojalilov A., G‘ulomova X., Dolimov Z. O‘qish kitobi (4-sinf uchun daislik). - T.: 2017. -216 b .